"Bolamni Ro'zixon o'qitsin"

Ustozning bilim salohiyatiga tan bermaslikning iloji yo'q. 1-sinfga qabul davrida aksar ota-onalar farzandini faqat Ro'zixon opa o'qitishini xohlaydi. Ammo buning iloji yo'qligidan, "ko'pchilikning ko'nglini ololmadim-a", derdi mehribon muallima.

3-bet

"General" onaning professor o'g'li

Sarlavhadagi "general" so'zi rasmiy harbiy unvon emas. O'sha mashhur "Suyunchi" filmidagi ona obraziga berilgan ta'rifga o'xshatma. "Professor" esa "general"ning o'g'li haqiqatan ega bo'lgan ilmiy unvon. Shu unvon sohibi to'g'risida hikoya qilamiz.

9-bet

Asqad Muxtorning oramizdagi shogirdi

Jizzax shahridan mashhur "Temur darvoza" tomon ketaverishda Sangzor daryosi atrofida qator qishloqlar joylashgan. Ularning birida 79 yoshli otaxon, O'zbekiston xalq o'qituvchisi, bir qancha she'riy kitoblar muallifi Said Mamarasulov umrguzaronlik qiladi.

11-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 31-mart, chorshanba № 13 (9338)

Xalq ziyolilari gazetasi

Lomakoniy do'st

7-bet

Zamonamiz qahramoni

Bizda bir muallima bor

Har gal maktab-internatda hamkasbim – ona tili va adabiyot o'qituvchisi Dilnoza Berdiyeva ochiq dars o'tsa yugurib kiraman. Har bir harakatini diqqat bilan kuzatib, qirq besh daqiqa qanday o'tganini sezmay ham qolaman va shunga amin bo'lamanki, uning darslari o'ziga xos, biri-biriga o'xshamaydi.

Uning uslubi, avvalo, darsni boshlash jarayonida sinfda mavzuga mos muhit yarata bilishi, o'quvchilar qalbini "ishg'ol" qilib, diqqatini o'ziga qaratishi, aqli va ongini bilim olishga chog'lashi, yoqimli ovoz bilan tushuntirishi, notiqligi, she'rlarni chiroyli o'qib berishi, o'tayotgan mavzuga oid darslikda yo'q qiziqarli ma'lumotlar keltirib, ularni hayot bilan bog'lashi, bir so'z bilan aytganda, o'z fanini chuqur bilishi va fan asoslarini o'quvchilarga yetkaza olishida namoyon bo'ladi.

3-bet

Bizni internetda ham kuzating! www.marifat.uz /marifat.uz @marifatziyo

O'qituvchi nimani o'ylaydi?

"Yangi o'quv yilidan boshlab nopedagogik mutaxassislikda o'qiyotgan yuqori kurs talabalari maxsus pedagogik tayyorlov modullarida o'qib, sertifikat olgach, maktabda dars berish huquqiga ega bo'ladi". Bu yangilikdan quvonmadik, albatta. Bunaqa qarorlar nega muhokamaga qo'yilmaydi, nega shundoq ham darslar yetishmayotgan chin o'qituvchining ahvoli hisobga olinmaydi?

Ustozlar, afsonaviy 1000 dollarni 1 stavka darsi bor oladi, 1 stavka endiyam anqoning urug'i bo'lishi aniq.

Nafisa ORTIQOVA

"Mukofot puli yozishmoqchi... Olsammikan, olmasammikan? Olay desam yarmini qaytarib berish kerak, olmay desam baloning o'qini qoyillatmaganlar ham olib yotibdi. Qaytarmayman desam bormi, shu bo'yi mukofotsizlikka mahkum bo'laman... Minnatli mukofotidan beminnat maoshimning barakasini bersin. Sizningcha, nima qilishim kerak?" deb maslahat solibdi bir hamkasbimiz...

Ko'zoynakli MUALLIMA

Sentabr oyida attestatsiyadan o'tish uchun belgilangan joyga bordik, tekshiruvchilardan o'tib ichkariga kirdik, eshik yonida joy bo'shashi va kompyuterlar ishlashi uchun 20 daqiqalar kutdik, so'ng ichkari kirdik. 3 ta kompyuterga o'tirdim, qotib ishlayotgan kompyuterlarning unisidan bunisiga o'tkazishadi, oxir oqibat balim ham rasvo bo'lib, o'tolmadim, demoqchimanki, attestatsiya testlari kompyuterda olinayotgan ekan, avvalo, sharoitni yaxshilash kerak. Bizga avvalgi qog'oz varianti yaxshi edi, kishini hayajonga ham solmasdi.

Anvar YO'LDOSHEV

Ibratga munosib

Hayotimizda o'rnak bo'lishga munosib insonlar ko'p. Ular har xil kasb egalari: o'qituvchi, shifokor, olim… Ammo shular orasida ustozlik kasbining o'rni alohida. Bu kasb haqida fikr yuritar ekanmiz, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Avlodlaringizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o'rgating", degan so'zlari beixtiyor yodimizga tushadi. Bu ilmni ulashuvchi zot ham ustoz, shubhasiz.

Shunday fidoyi, zamonaviy ustozlardan biri Toshkent kimyo-texnologiya institutining Shahrisabz filiali direktori, professor Shuhratjon Mutalovdir.

Domla faoliyatini 2001-yili TKTI "Sanoat ekologiyasi" kafedrasida assistentlikdan boshlagan. So'ng birin-ketin turli lavozimlarda ishlab, mehnatsevarligi, halol va kamtarinligi, o'z o'rnida talabchanligi sabab mazkur o'quv dargohi rektori bo'lgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Rossiyaning Mendeleyev nomidagi kimyo-texnologiya universitetining Toshkentdagi filiali 2019-yil avgust oyida Shuhratjon Mutalov tashabbusi bilan ochilgan.

Keyingi yillarda ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, yurtimizning turli shaharlarida nufuzli institutlar filiallari ochilmoqda. Shahrisabz shahrida ham Toshkent kimyo-texnologiya institutining filiali tashkil etildi va Prezident qaroriga muvofiq ushbu muassasa faoliyatini namunali yo'lga qo'yish maqsadida Shuhratjon Mutalov filial direktori etib tayinlandi.

Mazkur dargohda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish va iqtisodiy bazaviy tarmoqlarda zarur bo'lgan mutaxassisliklarda malakali kadrlar tayyorlanadi. Domla bu vazifada ham o'z ishini mehr bilan bajarishga kirishdi. Tashabbuskor direktor TKTI Shahrisabz filialida quyidagi yangi dasturlarni amalga oshirishni rejalashtirgan:

1. Filialda o'qitishning kredit modul tizimini tashkil etish.

2. Tayyorlanayotgan mutaxassislarga amaliy ko'nikmalarning o'qitilishini ta'minlash.

3. Bitiruvchilarning o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashlariga ko'maklashuvchi o'quv-ilmiy ishlab chiqarish laboratoriyasini yaratish.

Domla fidoyi va samimiy. U kishi talabani tinglashni biladi. Bir gal muassasa hovlisida g'amga botib turgan bir talabani ko'rib, uning yoniga boradi. Ahvolini, o'qishini surishtiradi. So'ng qanday muammo qiynayotgani bilan qiziqadi. Talaba oilaviy sharoiti tufayli bir fandan dars qoldirganini, endi bahosi sal pastroq qo'yilayotganini aytgach, domla o'sha fan o'qituvchisiga talabani qayta imtihon qilishini iltimos qiladi. Muayyan muddatda qoldirilgan mavzularni o'zlashtirgan talaba imtihondan yaxshi o'tadi. Bu Shuhratjon Mutalovning talabalar bilan muloqotiga, yaqin do'st ekaniga bir misol, xolos. Shuningdek, u kishi Shahrisabz shahri, Shahrisabz hamda Kitob tumanlaridagi qator umumta'lim maktablari bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan ham uchrashuvlar o'tkazadi. Uchrashuvda faol qatnashgan o'quvchilarga o'z hisobidan o'zbek va jahon adabiyotining nodir namunalarini sovg'a qiladi. Ularga yoshlardan talab qilinadigan narsa bu — shijoat, bilim va harakat ekanligini muntazam ta'kidlaydi. Yetuk rahbarning sa'y-harakati bilan bir yilda talabalar soni 117 nafardan 1260 nafarga yetdi.

"Biror ishni amalga oshirishga bel bog'lasam, uni chiroyli va mukammal bajarishga intilaman". Bu Shuhratjon Mutalovning hayotdagi shiori. Shu sabab ham domla qayerda ishlamasin, o'sha yerda sifat va samaradorlik birinchi o'ringa chiqadi. Shunday mas'uliyatli insonlar esa yoshlar uchun chin ibratdir.

Shirin UZOQOVA,
Toshkent kimyo-texnologiya institutining Shahrisabz filiali o'quv-metodik bo'lim metodisti

Nostandart testlar o'quvchilarni izlanishga undaydi

Ta'limdagi bugungi islohotlar yuksak salohiyatli va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni talab etadi. O'qituvchi qaysi fandan dars berishidan qat'i nazar, ijodkor bo'lishi, o'tilayotgan har bir mavzuga ijodiy yondashishi samarali natijani kafolatlaydi.

Shu ma'noda, geografiya o'qituvchisi sifatida har bir darsga, mavzuga ijodiy yondashishga harakat qilaman. Ta'lim mazmuniga kiritilgan har bir yangilikni davlat ta'lim standartlariga uyg'un holda darsda qo'llayman. Ayniqsa, mavzuni mustahkamlash qismida o'quvchilar bilimini va o'zlashtirish darajasini sinash maqsadida testlardan unumli foydalanaman. PISA — xalqaro tadqiqot dasturida ham o'quvchilarning bilimi o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalari hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalari turli testlar yordamida baholanadi.

O'quv jarayonida standart va nostandart testlardan foydalanaman. Standart testlar mazmuni bo'yicha reproduktiv va produktiv darajada, tarkibi jihatidan savoli to'g'ri va noto'g'ri javoblardan iborat bo'lsa, nostandart testlar o'zining mazmuni, tuzilishi va qo'llanish maqsadiga ko'ra muayyan darajada farq qiladi. Ya'ni, o'quvchilarni izlanishga undashi bilan ahamiyatlidir. Bunday testlarga rasmlarga qarab javob berish, xaritadan foydalanib javobini topish, testni yechish uchun diagramma va slaydlardan foydalanish kiradi.

Sayyora ASHUROVA,
Kasbi tumanidagi 40-maktabning geografiya fani o'qituvchisi

Im Svetlana Borisovnaning 10.00.04 — Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "So'z tovush qobig'i sintezi jarayonidagi morfonologik hodisalar (ot so'z turkumi misolida)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"a" uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92;
e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Shoisoyev Izatullo Kenjayevichning 18.00.01 — Arxitektura nazariyasi va tarixi. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va tiklash ixtisosligi bo'yicha "Mirzacho'l arxitekturasining vujudga kelish va taraqqiay etish jarayonlari" mavzusidagi (Arxitektura fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.A.11.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-aprel kuni soat 10: 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"v" uy. TAQIning Arxitektura fakulteti binosi, majlislar zali.
Tel/ faks: (71) 234-11-37, 241-13-90; e-mail: info@taqi.uz

Saipova Madina Saidaxbor qizining 18.00.01 — Arxitektura nazariyasi va tarixi. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va tiklash ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston o'rta asr me'moriy bezaklarida ramziy ifodalarning rivojlanishi" mavzusidagi (Arxitektura fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.A.11.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-aprel kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"v" uy. TAQIning Arxitektura fakulteti binosi, majlislar zali.
Tel/ faks: (71) 234-11-37, 241-13-90; e-mail: info@taqi.uz

G'ulomova Xilola Azizovnaning 10.00.10 — Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ixtisosligi bo'yicha "Afzaliyning "Majma' ul-masoil" asari qo'lyozma nusxalarining qiyosiy-tekstologik tadqiqi" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

---

Nazirova Shukriya Miadovnaning 10.00.05 — Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Xitoyda ayollar adabiyoti: shakllanish omillari va takomil bosqichlari (XX–XXI asrlar)" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-aprel kuni soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

---

Djurayeva Feruza Shukurovnaning 10.00.05 — Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Ilk o'rta asrlar arab xitobalari poetikasi" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

---

To'lagonova Shahnoza Abdumajidovnaning 10.00.05 — Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Qadimgi turkiy bitiglarda kechgan stereotip birliklar: semantika va stilistika masalalari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-aprel kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru